



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ZAMON VA ASPEKT MA'NOLARINING MUNOSABATI

Xasanov Ramish Samatovich

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

ramishxasanov09@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179652>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamon va aspekt ma'nolarining tilshunoslikdagi munosabatlari tahlil qilinadi. Aspektual semantikaning (tugallanganlik va protsessuallik) fe'ning zamon shakllari bilan qanday bog'liqligi ilmiy yondashuvlar asosida muhokama qilinadi. Turli nazariy qarashlar, jumladan, Maslov, Bondarko, Desherieva va boshqa olimlarning fikrlari tahlil qilinib, zamon va aspekt kategoriyalarining o'zaro ta'siri, semantik va sintaktik jihatdan bog'liqligi yoki mustaqilligi masalalari ko'rib chiqiladi. Nemis, rus va o'zbek tillari misolida zamon va aspektning turlicha ifodalanish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: zamon, aspekt, aspektual semantika, temporallik, grammatik kategoriya, sintaktik vositalar, semantik tahlil, nemis tili, rus tili, o'zbek tili, kross-lingvistik tadqiqot.

Kirish. Tilshunoslikda zamon va aspekt ma'nolari o'rtasidagi munosabatlar nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ushbu munosabatlarning ilmiy yondashuvlari va ularning tilshunoslikdagi ifodalari tahlil qilinadi. Fe'ning zamon shakllari aspektual semantika bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu bog'liqlik ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganilgan.

Aspektual semantika (tugallanganlik va protsessuallik)ni ifodalashda fe'ning zamon shakllari asosiy o'rin tutadi. Zamon va aspekt o'rtasidagi yaqin aloqalar ko'plab ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan (Koschmieder, Kurilovich, Maslov, Bondarko) (qarang:[Rizayev, 1999:8]).

Ba'zi tilshunoslar zamon va aspekt yagona kategoriya deb hisoblashsa-da, ularning semantik jihatdan farqlanishini e'tirof etuvchi olimlar ham mavjud. Masalan, Yu.S. Maslov aspekt va zamon bir-biri bilan chambarchas bog'langanini ta'kidlagan bo'lsa-da, ularni grammatik jihatdan ajratish mumkinligini qayd etgan. Unga ko'ra, bu toifalar gibril aspekt-temporal shakllanishlarga ega bo'lishi mumkin, ammo semantik jihatdan farqlanishi lozim [Maslov, 1978: 5].

T.I. Desherieva esa zamon va aspektni bir butun kategoriya sifatida qabul qilishga qarshi chiqib, ular mustaqil grammatik birlik ekanligini ta'kidlaydi [Desherieva, 1979]. Unga ko'ra, fe'ning zamon shakllari lingvistik vaqtning mutlaq yoki nisbiy tizimiga asoslangan bo'lib, aspektual ma'no ularning asosiy mazmuni emas.

Aspekt va zamon tushunchalari semantik jihatdan turli darajada joylashgan. Yu.S. Maslov vaqt tushunchasini harakatning nutq momentiga yoki "bu yerda va hozir" tamoyiliga nisbatan lokalizatsiyasi sifatida talqin qiladi [Maslov, 1978: 6].



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Aspektual ma'nolar esa so'zlovchining harakat jarayoni va uning vaqt bo'yicha taqsimlanishini qanday tushunishiga bog'liq (usha asar: 7-8).

A.V. Bondarko esa temporallikni orientatsion semantik kategoriya sifatida ko'rib, uni boshqa kategoriyalar bilan bog'laydi. Unga ko'ra, aspektual ma'nolar, modallik va temporal lokalizatsiya harakatning ma'lum vaqt doirasida qanday amalga oshishini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi [Bondarko, 1990: 5].

Maykl Starke [2005] tomonidan nemis tilida zamon va aspekt sintaktik jihatdan qanday ifodalanganligi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nemis tilida zamon va aspekt perfekt va preterit shakllari orqali ifodalanadi. Dialektal farqlar tufayli janubiy hududlarda perfekt, shimolda esa preterit shakli ko'proq ishlatiladi. Nemis tilida ochiq aspektual morfologiya mavjud bo'lmasa-da, turli sintaksik vositalar yordamida harakatning davomiyligi yoki tugallanganligini ifodalash mumkin.

Sh.M. Toshxo'jayeva [2007] o'zbek tilidagi zamon va aspekt masalalarini alohida tahlil qilib, zamon kategoriyasining harakatning davomiyligi, tugallanganligi va shiddatliliigi kabi aspektual xususiyatlarini ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, o'zbek tilidagi fe'l shakllari sintetik va analitik tuzilmalarga bo'linadi. Masalan, "boraman" so'zi hozirgi va kelasi zamoni ifodalasa, "borayotgan edim" shakli o'tgan zamonda davom etgan harakatni bildiradi. O'zbek tilidagi grammatik zamon shakllari boshqa tillar bilan solishtirilgan holda ham tahlil qilinib, rus va ingliz tillaridagi o'xshash va farqli jihatlar ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, G.K. Mirsanov [2019] zamon va aspekt ifodalanishining kognitiv-pragmatik asoslarini tadqiq qilgan. Ushbu yondashuvda aspekt va zamon ma'nolarining kontekstdagi o'zgaruvchanligi va ularning nutqiy faoliyatda qanday namoyon bo'lishi o'rganilgan.

Zamon va aspekt nafaqat semantik, balki sintaktik jihatdan ham turlicha ifodalanadi. O'zbek tilida zamonning analitik shakllari yordamchi fe'l va qo'shimcha birliklar orqali hosil bo'lsa, ingliz va rus tillarida bu shakllar o'ziga xos grammatik vositalar bilan ifodalanadi.

Masalan, o'zbek tilidagi "borib keldi" shakli harakatning tugallanganligini bildirsa, "borib turdi" shakli uning davomiyligini anglatadi. Ingliz tilida esa "has gone" va "was going" shakllari zamon va aspekt munosabatini aniqroq ko'rsatadi.

Zamon va aspekt o'rtasidagi munosabat tilshunoslikda muhim ilmiy muammo bo'lib, ularning bir-biriga bog'liq yoki mustaqil ekanligi borasida turli nazariy qarashlar mavjud. Ba'zi olimlar ularni yagona kategoriya deb hisoblasalar, boshqalar ularni grammatik jihatdan mustaqil deb biladilar. Nemis va o'zbek tillari misolida



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ko'rilganidek, zamon va aspektning ifodalanishi turli tillarda har xil mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa. Shuningdek, zamon va aspektning semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan o'zaro ta'sirchanligi haqida yanada chuqurroq tadqiqotlar talab etiladi. Kelajakda turli tillardagi zamon va aspektni tadqiq qilish bo'yicha kross-lingvistik (qiyosiy, tipologik, psixolingvistik) va eksperimental tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бондарко А.В. Интерпретационный компонент языковых значений и понятия эквивалентности в сопоставительной лингвистике // Zeitschrift. Slavistik. 1990. 3d. 35. N. 4. S. 482-487.
2. Дешериева Т.И. Исследование видо-временной системы в нахских языках. М., 1979.
3. Маслов Ю.С. К основаниям сопоставительной аспектологии // Вопросы сопоставительной аспектологии. Л., 1978. С. 4-44.
4. Мирсанов Г. К. Аспектуаллик ва темпораллик мазмуни ифодасининг когнитив-прагматик асослари. Филол. фан. докт. дисс. Тошкент — 2019. 256 б.
5. Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. "Фан". Ташкент, 1999 а.- 121 с.
6. Starke M. (Ed.). *The Syntax of Tense and Aspect: Theoretical and Cross-Linguistic Perspectives*. Oxford University Press, 2005. - 384 P.
7. Тошхўжаева Ш. М. Аспекты грамматической категории времени в узбекском языке. Ташкент: Укитувчи, 2007.